

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



**"TASDIQLAYMAN"**

Buxoro davlat universiteti rektori

O.X.Xamidov

"07" 06 2023 y.

**MATEMATIKA (MAJBURIY) FANI BO'YICHA KASBIY (IJODIY)  
IMTIHONLAR DASTURI VA BAHOLASH ME'ZONLARI DASTURI**

**KIRISH IMTIHONLARIDA**

**MATEMATIKA (MAJBURIY) FANI BO'YICHA**

**(KO'ZI OJIZLAR) UCHUN DASTUR**

**BYXOPO-2023**

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturi va baholash me'zonlari Buxoro davlat universiteti Kengashining 6-iyun 2023-yildagi 13 - sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

**Tuzuvchilar:**

**E.B. Dilmurodov** – Matematik analiz kafedrası mudiri

**U.D. Durdiyev** – Differensial tenglamalar kafedrası mudiri

**Taqrizchilar:**

**Z.R. Bozorov** – V.I. Romanovskiy nomidagi matematika instituti Buxoro bo'linmasi katta ilmiy xodimi

**Z.N. Hamdamov** – Differensial tenglamalar kafedrası katta o'qituvchisi

## KIRISH

Mazkur dastur ko‘zi o‘jiz va ko‘rish qobiliyati sust bo‘lgan abituriyentlar uchun tuzilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasidagi ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quv dasturiga mos tarzda tuzilgan.

Mantiqiy masalalarni yechish, sonli ifodalar ustida amallar bajarish, algebraik ifodalarda shakl almashtirish, arifmetik va geometric progressiyalar, trigonometriya, planimetriya, stereometriya masalalari, logarifmik tenglama va tengsizliklar, darajali tenglama va tengsizliklar, ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaga oid masalalar, hosila va integralni hisoblashga doir masalalar o‘quvchi tafakkuri, mantiqiy fikrlashini o‘stirishda, dunyoqarashini belgilashda ahamiyatlidir.

### **Dasturning maqsadi va vazifalari**

Ushbu dastur bo‘lajak mutaxassis-kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, til va Matematikaga oid fanlarning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishni ko‘zda tutadi.

Bunda abituriyentlarning kelgusi kasbiy faoliyatlari uchun puxta nazariy asos yaratish; matematikaga oid masalalarni talqin qila olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish maqsadi qo‘yiladi.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda matematikaning o‘rta ta‘lim dasturida belgilangan mavzulariga oid masalalarni tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish vazifalari ko‘zda tutilgan.

### **Abituriyentning bilinimiga qo‘yiladigan talablar**

“Matematika” (ko‘zi o‘jizlar uchun) kasbiy (ijodiy) imtihon dasturiga ko‘ra abituriyent:

- kasrlar ustida amallar bajara olish;
- sonli ifodalarning qiymatini hisoblay olish;
- algebraic ifodalarni soddalashtirish, ularning son qiymatini hisoblay olish;
- mantiqiy masalalarni hal qila olish;
- natural sonlarda bo‘linish alomatlari, EKUB va EKUKni hisoblay olish;

- birhadlar va ko'phadlar ustida amallarni bajara olish;
- kvadrat tenglamalarga oid masalalarni yecha olish;
- tenglamalar sistemasini yecha olish;
- funksiyalarni to'la tahlil qila olish;
- arifmetik va geometrik progressiyalarga oid masalalarni yecha olish;
- ko'rsatkichli tenglama va tengsizliklarni yecha olish;
- logarifmik ifodalarda shakl almashtirish, logarifmik tenglama va tengsizliklarni yecha olish;
- trigonometric ifodalarda shakl almashtirish, trigonometric tenglama va tengsizliklarni yecha olish;
- hosila va integralga oid masalalarni yecha olish;
- kombinatorikaga oid masalalarni yecha olish;
- ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaga oid masalalarni yecha olish;
- planimetriya masalalarini yecha olish;
- stereometriya masalalarini yecha olish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

### **Fanning mazmuni**

Natural sonlar ustida arifmetik amallar. Natural sonlarda bo'linish alomati. Natural sonlarni tub ko'paytuvchilarga ajratish va bo'luvchilar sonini aniqlash. Eng katta umumiy bo'luvchi va eng kichik umumiy karrali.

Oddiy kasrlar ustida amallar. O'nli kasrlarga doir misollar. Oddiy va o'nli kasrlar birgalikda bajariladigan amallarga doir misollar. Cheksiz o'nli kasrlar.

Ifodalarni shakl almashtirish. Bir o'zgaruvchili chiziqli tenglamalar. Chiziqli tenglamalar sistemasi. Chiziqli tenglamalar sistemasi yordamida yechiladigan masalalar.

Birhadlar. Ko'phadlar. Ko'phadlarning yig'indisi va ayirmasi. Ko'phadlarni ko'paytirish. Ko'phadlarni ko'paytuvchilarga ajratish.

Yig'indining kvadrati va ayirmaning kvadrati. Yig'indining kubi va ayirmaning kubi. Kvadratlar ayirmasi. Kublar yig'indisi va ayirmasi.

Algebraic kasrlar ustida amallar.

- formula va tasdiqlarni qo'llay olmasa;
- fikrlash doirasi tor bo'lsa;
- fikr bayoni izchil bo'lmasa.

### **Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish**

Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi faoliyati 2023-2024 o'quv yili komissiyasi tomonidan tashkil etiladi. Imtihon komissiyasi tarkibi, odatda, uch nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Ijodiy imtihon natijalari o'tkazilgan kundan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi. Imtihon natijalaridan norizo abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha appelyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

### **Appelyasiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish**

Appelyasiya komissiyasi ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi faoliyatini yo'lga qo'yilishi bilan bir paytda 2023-2024 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi. Abituriyent ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari e'lon qilingan kundan boshlab, 24 soat ichida appelyasiya komissiyasiga murojaat etishi shart. Aks holda, ko'rsatilgan muddatdan o'tib qilingan murojaat inobatga olinmaydi.

Appelyasiya komissiyasi abituriyentlar tomonidan bildirilgan og'zaki va yozma murojaatlarga javob beradi.

Abituriyent tomonidan bildirilgan murojaatni ko'rib chiqadi va 24 soat ichida xulosalarni ma'lum qiladi.

Murojaat mazmunida faqat abituriyent o'zi to'plagan ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi



R.G'. Jumayev